



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019-yil yanvar-oktabr

RAQAMLAR:


- 2019-yil yanvar- oktabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 5959,7 mlrd.so'm-ni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 164,6 % ni tashkil etdi.
- Savdo xizmatlari ulushi ko'rsatilgan umumiy xizmatlar hajmida 42,9 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 2300,1 ming.so'mni o'sish sur'ati 108,5 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

2019-yil yanvar- oktabr oylarida Surxondaryo viloyatida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 5959,7 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,0 %ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta hajm savdo xizmatlari (2553,0 mlrd.so'm)ni tashkil etadi.

Ko'rsatilgan xizmatlar hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm




- Shu bilan birga, Savdo (2553,0 mlrd.so'm) transport xizmatlari hajmi (919,5 mlrd. so'm),moliyaviy xizmatlar (904,3 mlrd. so'm) Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (286,3 mlrd. so'm)


Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasida 18,7 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning jami korxonalar va tashkilotlar sonidagi ulushi 66,6% ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-oktabr oylarida korxonalar va tashkilotlar jami sonida xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklarida ntashqari) % da




2019-yil yanvar-oktabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi,%



2019-yil yanvar-oktabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Termiz shahrida (115,2 %), Denov (113,4 %), Sariosiyo (106,3%), Oltinsoy (105,9 %), tumanlarida qayd etildi.

2019-yil yanvar- oktabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Muzrabot (104,2 %), Angor(104,4 %), Qumqo'rg'on (107,4 %), Uzun, Qiziriq (104,9 %), Sho'rchi (105,0 %), Boysun, Sherobod(105,3 %) tumanlarida kuzatildi.

2019-yil yanvar-oktabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi

| | Hajmi, mlrd.so'm | O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % |
|-----------------------------|---------------------|---|
| Surhondaryo viloyati | 5959,7 | 111,0 |
| Termiz sh | 2690,2 | 115,2 |
| tumanlar: | | |
| Oltinsoy | 158,1 | 105,9 |
| Angor | 158,9 | 104,4 |
| Boysun | 127,4 | 105,3 |
| Muzrabot | 210,6 | 104,2 |
| Denov | 1020,4 | 113,4 |
| Jarqo'rg'on | 213,4 | 105,7 |
| Qumqo'rg'on | 204,6 | 104,7 |
| Qiziriq | 191,9 | 104,9 |
| Sariosiyo | 237,8 | 106,3 |
| Termiz | 145,5 | 107,6 |
| Uzun | 153,3 | 104,9 |
| Sherobod | 233,5 | 105,3 |
| Sho'rchi | 214,1 | 105,0 |


Hududlar o'rtasida eng katta xizmatlar hajmi Termiz shahrida (2690,2 mlrd.so'm) va Denov tumaniga (1020,4 mlrd.so'm) to'g'ri keladi.

Eng past hajmlar Boysun (127,4 mlrd.so'm) va Termiz (145,5 mlrd.so'm), tumanlarida kuzatildi.

Hududlar o'rtasida Termiz shahri yetakchi o'rinni egallaydi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Termiz shahrining ulushi 45,1 % ni tashkil qiladi. Shu bilan birga, xizmatlar umumiy hajmida hududlar bo'yicha eng yuqori ulushlarni Denov tumani (17,1 %), Sariosiyo (4,0 %), Sariosiyo (4,0 %), Sherobod (3,9%), tumanlari tashkil etadi.

2019-yil yanvar- oktabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi


(jami hajmga nisbatan), %



Hududlar o'rtasida eng past ulushlar Boysun (2,1%), Termiz(2,4%), Uzun (2,6%) Angor, Oltinsoy (2,7 %), Qiziriq (3,2 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar- oktabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2300,1 ming.so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 108,5 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar- oktabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Termiz shahrida – 18489,1 ming.so'm qayd etildi. 2018-yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan o'sish 114,1 % ni tashkil etdi.


Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Qumqo'rg'on tumanida – 852,1 ming.so'm kuzatildi, o'sish sur'ati 102,2 % ni tashkil etdi.

**2019-yil yanvar-oktabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

| | Hajm mird so'm | O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % |
|---|-------------------|--|
| Xizmatlar - jami | 5959,7 | 111,0 |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 286,3 | 110,7 |
| Moliyaviy xizmatlar | 904,3 | 164,6 |
| Transport xizmatlari | 919,5 | 102,3 |
| <i>Shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i> | <i>874,5</i> | <i>101,6</i> |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 192,7 | 110,1 |
| Savdo xizmatlari | 2553,0 | 104,7 |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 168,5 | 102,0 |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar | 173,3 | 102,4 |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 61,1 | 104,6 |
| Ijara xizmatlari | 150,2 | 107,4 |
| Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 158,9 | 100,6 |
| Shaxsiy xizmatlar | 166,9 | 100,3 |
| Me'morchilik sohasidagi xizmatlar | 76,6 | 116,4 |
| Boshqa xizmatlar | 148,4 | 98,8 |

2019-yil yanvar-oktabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Savdo xizmatlari (42,9 %), Transport xizmatlari (15,4 %), Moliyaviy xizmatlar (15,2 %) Aloqa va axborotlashtirish (4,8 %), Yashash va ovqatlanish (3,2 %) xizmatlari bo'yicha jami hajmga nisbatan ulushlar qayd etildi.

2019-yil yanvar- oktabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



%

Taqqoslash uchun, 2019-yil yanvar-oktabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar -164,6 %, me'morchilik sohasidagi-116,4 %, Xizmatlar – jami 111,0 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari- 110,7 %, yashash va ovqatlanish xizmatlari -110,1 %, ijara xizmatlari -107,4 %

2019-yil yanvar-oktabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 2553,0 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 42,9 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 386,9 mlrd.so'mga oshdi.

Savdo xizmatlarining eng katta hajmi Termiz sh. (1184,9 mlrd.so'm), Denov (314,5 mlrd. so'm), Sariosiyo (108,4 mlrd. so'm), Sherabod(105,0 mlrd. so'm), Sho'rchi (103,8 mlrd.so'm), Qumqurg'on (98,0 mlrd. so'm), Qiziriq (93,7 mlrd.so'm) tumanlarida qayd etildi.

2019-yil yanvar- oktabr oylarida hududlar bo'yicha savdo xizmatlarining hajmi, mlrd. so'm




Savdo xizmatlarining eng past ko'rsatkichi Boysun tumanida kuzatilmoqda. Ushbu hududda, savdo xizmatlari hajmi 57,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Surxondaryo viloyati transportining samarali ishlashi modernizatsiyalash, innovatsion rivojlanish yo'llariga o'tish va milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi uchun sharoit yaratishda alohida o'rin tutadi.

Jami xizmatlar tarkibida yetakchi o'rinni transportida ko'rsatilgan xizmatlar (15,4 %) egallaydi.

**2019-yil yanvar-oktabr oylarida hudular bo'yicha
avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar ulushi
(avtomobil xizmatlarining umumiy hajmiga nisbatan), %**



**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**

Mas'ul: P.Eshboyeva

Tel: (71) 230-85-84